

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidentining amaliy uchrashuvi bo'lib o'tdi



25-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyevning amaliy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv Qozog'iston tomonining taklifiga binoan Turkiston viloyatining O'zbekiston bilan chegaradosh hududidagi Sariag'ash shahrida o'tkazildi.

Ikki mamlakat yetakchilari O'zbekiston-Qozog'iston strategik sheriklik munosabatlarining bugungi holati va istiqbollari muhokama qilib, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Koronavirus infeksiyasi global miqyosda tarqalishining oqibatlarini tez fursatda yengib o'tish maqsadida hukumatlar darajasida yaqindan muvofiqlashuv va samarali hamkorlikni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki tomonlama savdo hajmini oshirish va tovar ayirboshlashning o'zaro kelishilgan ko'rsatkichlariga erishish uchun qulay sharoitlar shakllantirishni davom ettirish, qabul qilingan qo'shma "Yo'l xaritasi" doirasida sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida kooperatsiya bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish, hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlarni qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, mintaqaviy sheriklikni, jumladan, 2019-yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi Maslahat uchrashuvi yakunida erishilgan kelishuvlar asosida ilgari surish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Bundan tashqari, MDH doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Suhbat chog'ida Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev qardosh O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari o'rtasida yaxshi qo'shnihilik rishtalari va har tomonlama aloqalarni mustahkamlashda doimo qat'iy ekanliklarini yana bir bor ta'kidladilar.

Uchrashuv har doimgidek ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

Manba